УДК 664.1

# QANDOLAT FABRIKALARI ISHCHILARINING MEHNAT GIGIYENASI MUAMMOLARI

**Bafoyev Azizbek Husen o`g`li**
*ORCID iD: 0009-0007-1345-1395*
*Buxoro Davlat tibbiyot instituti*

**Anotatsiya**: *Qandolat sanoati koʻplab odamlar uchun oziq-ovqat ta'minoti va ish oʻrinlari yaratish manbai hisoblanadi. Biroq, qandolat fabrikalarida ishlash, mehnat gigiyenasi muammolari bilan bogʻliq. Ushbu maqolada ishchilar salomatligiga ta'sir etuvchi muammolarni koʻrib chiqamiz va ularga yechimlarni taklif qilamiz.*

**Kalit soʻzlar**: *mehnat gigiyenasi, ish joyidagi gigiyena, kimyoviy moddalar, ish vaqti, ishchilar salomatligi, qandolat sanoati.*

# ПРОБЛЕМЫ ГИГИЕНЫ ТРУДА РАБОТНИКОВ КОНДИТЕРСКИХ ФАБРИК

**Аннотация:** *Кондитерская промышленность является источником продовольствия и рабочих мест для многих людей. Однако работа на кондитерских фабриках связана с проблемами гигиены труда. В этой статье мы рассмотрим проблемы, влияющие на здоровье работников, и предложим решения.*

**Ключевые слова:** *гигиена труда, гигиена на рабочем месте, химические вещества, рабочее время, здоровье работников, кондитерская промышленность.*

# OCCUPATIONAL HYGIENE PROBLEMS OF WORKERS IN CONFECTIONERY FACTORIES

**Abstract:** *The confectionery industry is a source of food and jobs for many people. However, working in confectionery factories is associated with occupational hygiene problems. This article will discuss the problems affecting the health of workers and offer solutions.*

**Keywords:** *occupational hygiene, workplace hygiene, chemicals, working time, worker health, confectionery industry.*

Jahonda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi sharoitida asosiy strategik masalalar yechimini hal qilishda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Soʻnggi bir necha yil ichida dunyoda ochlik va toʻyib ovqatlanmaslikni bartaraf etish yoʻlidagi taraqqiyot rivojlanishi sekinlashdi, natijada esa koʻplab odamlar ovqatlanish uchun yetarli oziqovqatsiz qola boshladi. Jahon oziq-ovqat dasturining hisob-kitoblariga koʻra, 79 mamlakatda 349 million kishi

oziq-ovqat xavfsizligiga duch kelmoqda. Bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash asosida aholi

turmush sifatini oshirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini yanada rivojlantirishda Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi “Oziq-ovqat va nooziq ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan toʻldirish va narxlar barqarorligini taʼminlash, 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini sut boʻyicha 32 foiz, goʻsht – 25 foiz, meva-sabzavot – 28 foizga yetkazish, oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish va ichki bozorda intervensiya qilish hajmlari koʻrsatkichlari, hududiy hokimliklarning ichki bozorda narxlar barqarorligini taʼminlash borasidagi vazifalarini aniq belgilash, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish boʻyicha choralarni nazarda tutish” alohida vazifalar belgilangan. Hozirgi kunda oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning klaster tizimi, raqamli texnologiyalar, bozor talablariga moslashuvchan innovatsion yondashuvlarga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yaratish, korxonalar faoliyatini boshqarishda klasterlarni shakllantirish kabi ustuvor yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Amalga oshirilayotgan tadqiqot doirasida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish boʻyicha mahalliy olimlarimizdan M.Karimovning tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida klaster tizimi asosida shakllantirishda, ularni rivojlantirish yoʻnalishlarini ishlab chiqish va tarmoq boshqaruvining

tashkiliy tuzilishi takomillashtirilgan I.Y.Umarovning tadqiqotlarida esa oziq-ovqat sanoati korxonalarida iqtisodiy salohiyatini baholash boʻyicha uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan hamda tadqiq qilingan. Hududlarda oziqovqat sanoati korxonalarining moliyaviy iqtisodiy salohiyati amaliy jihatdan baholangan. Xorijiy tadqiqotchi olimlardan I.Ansoff, I.Mazur, I.Yasnolob M.Porter, M.V.Taradina, N.Protsiuk, O.Gorb, R.Grant va boshqalar sanoat sohasini, jumladan, oziq-ovqat sanoati faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga hamda soha faoliyatini vertikal va gorizontal klasterli yondashuv asosida rivojlantirish boʻyicha tadqiqotlar olib borgan.

Ilmiy natijalar

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining klaster tizimi orqali boshqarish jarayoniga omillar taʼsirini baholash, oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatiga mavsumiylik omili taʼsirini baholash va oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari soha faoliyatining rivojlanish davrini qisqartiradi hamda iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichlari ortadi. Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyati koʻrsatkichlarini baholash asosida monografik tadqiqotlar asosida nazariy va amaliy jihatdan keng oʻrganib chiqildi. Rasmiy statistik maʼlumotlari asosida Eviews 10 dasturidan foydalangan holda, asosiy koʻrsatkich hisoblangan boshqaruv xodimlari soni, boshqaruv xarajatlari, kapital qoʻyilmalar hajmi va unga taʼsir etuvchi vaqtli qatorlari negizida

ekonometrik model aniqlandi, asosiy parametrning oʻzgarish tendensiyalari baholandi hamda qisqa muddatli davr uchun prognoz koʻrsatkichlari aniqlandi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy abstraksiya, korrelyatsion-regression tahlil, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. Natijalar va muhokama. Oʻzbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2012-2022-yillarda qariyb 7,8 martaga ortgan. Jumladan, 2012-yilda 8610,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2021-yilga kelib jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish koʻlamini ortib borishiga hisobiga 451633,9 mlrd. soʻmga ortgan.

Oʻzbekiston Respublikasida 2022-yilda hududlar boʻyicha oziqovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning oʻsish surʼati tahlil qilingan. Hududlar kesimida ishlab chiqarish sanoatida eng yuqori oʻsish surʼati 132,8% bilan Xorazm viloyati keying oʻrinlarda esa Sirdaryo viloyati va Toshkent shahrlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Undan keyingi oʻrinlarni Samarqand shahri(121,8%) va Andijon viloyati(118,6%) egallamoqda.

Ishlab chiqarish sanoating eng past oʻsish koʻrsatkichi esa Navoiy, Surxondaryo va Fargʻona viloyatlariga toʻgʻri keladi.

1. Ish joyidagi gigiyena sharoitlari

Gigiyena sharoitlari — qandolat fabrikalarida ish joylarining tozaligi va sanitariya talablariga muvofiq boʻlishi muhim. Koʻp hollarda, ish joylarida tozalash standartlariga rioya qilinmaydi, bu esa respirator kasalliklar va allergiyalarga olib kelishi mumkin. Ish joylarining tozaligi, ishlab chiqarish jarayonlarining sanitariya talablariga muvofiq boʻlishi zarur.

2. Kimyoviy moddalar va ularning ta'siri

Qandolat ishlab chiqarishda keng koʻlamda kimyoviy moddalar (konservantlar, boʻyoqlar) ishlatiladi. Ularning ta'siri ishchilarning sogʻligʻiga salbiy boʻlishi mumkin. Kimyoviy moddalar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri aloqada boʻlish, allergik reaktsiyalar va nafas olish muammolarini keltirib chiqaradi. Gigiyena qoidalariga rioya qilish zarurligini ta'kidlaymiz.

3. Ish vaqti va mehnat sharoitlari

Qandolat fabrikalarida uzoq soatlik ish va qiyin mehnat sharoitlari mavjud. Bu jismoniy va ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir koʻrsatadi. Ishchilarning uzoq vaqt davomida bir xil pozitsiyada boʻlishi, ularni charchatishi va turli kasalliklarga olib kelishi mumkin. Dam olish imkoniyatlari berilishi muhim.

4. Ta'lim va malaka oshirish

Ishchilarning mehnat gigiyenasi boʻyicha bilimlarini oshirish muhim ahamiyatga ega. Muntazam ta'lim va malaka oshirish kurslari o'tkazilishi kerak. Bu ishchilarni gigiyena qoidalari va xavfsizlik chora-tadbirlarini bilishlariga yordam beradi.

5. Tashkiliy choralar

Mehnat gigiyenasi boʻyicha qonunchilik va standartlarga rioya qilishni ta'minlash zarur. Ish beruvchilar ish sharoitlarini yaxshilash, sanitariya va gigiyena talablariga e'tibor berishlari lozim. Ishchilarning fikrlarini inobatga olish ham muhim. Tashkiliy

choralar sifatida ishchilarga qulay sharoitlar yaratish va zarur vositalar bilan ta'minlash lozim.

**XULOSA**

Qandolat fabrikalarida ishchilarning mehnat gigiyenasi muammolari salomatlik va ish samaradorligiga katta ta'sir koʻrsatadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun ish joylarining gigiyena sharoitlarini yaxshilash, kimyoviy moddalar bilan ehtiyotkorlik bilan ishlash, ta'lim va malaka oshirish, hamda tashkiliy choralarni amalga oshirish zarur. Barcha ishtirokchilar, jumladan ish beruvchilar, ishchilar va davlat organlari birgalikda bu muammolarni hal qilishda oʻz mas'uliyatini tushunishi lozim.

**ADABIYOTLAR :**

1. Ункциональные ингредиенты в производстве кондитерских изделий

Куракина А.Н., Красина И.Б., Тарасенко Н.А., Филиппова Е.В. Фгбоу Впо «Кубанский Государственный Технологический Университет», Краснодар,

2. The art of confectionery ivan day part of this essay was used in the exhibition catalogue the pleasures of the table by peter brown and Ivan Day (York Civic Trust) © Ivan Day

3. Confectionery and chocolate engineering – principles and applications,

F.Á. Mohos Wiley Blackwell, Chichester, Uk; Hoboken, Us

4. Confectionery goods for healthy diet G. A. Dorna, T. V. Savenkovab, O. S. Sidorovac , O.V. Golubd State Agricultural University Of Northern Zauralie,

5. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida klasterli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish M.M.Turgʻunov

6. O`zbekistonda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining hozirgi holati

Baytanov O`. M.

7. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv istiqbollari

Turgʻunov Muxriddin Moʻydinjon oʻgʻli

8. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishda ekonometrik

prognoz koʻrsatkichlaridan foydalanish M.M. Turgʻunov

9. Sanoat korxonalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish va iqtisodiy xavfsizlikni taminlash Masalalari Muxammadiyev Nodirbek Ikromjon o`g`li

10. Sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarini rivojlanishini ekonometrik modellashtirishning Nazariy-Uslubiy Asoslari Quvatova Gulzoda Faxriddin Qizi

11.Oʻzbekistonda iqtisodiyotni tranformatsiyalashuvi sharoitida sanoat tarmoqlari va korxonalari kooperatsiyasini rivojlantirishning ahamiyati.

Xomidov Mirodiljon Xasanboy Oʻgʻli

12. Oziq-ovqat savdosiga ixtisoslashgan korxonalarda innovatsion texnologiyalarning qoʻllanilish.

Xatamova Xurshida Ochildiyevna

13. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va uning dolzarb masalalari.

Nabiyeva Nilufar Mutorovna,

14. Oziq-ovqat sanoat korxonalari faoliyatini boshqarish hamda korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirish yoʻllari.

Rasulova Sharifa Gʻaybullayevna

15. Qandolat mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasi.

Mo'saxonova Nigora, Karimova Sarvinoz

16. Qandolat mahsulotlari tarkibiy qismidagi unning soxtaligini aniqlash Mirsavirova D.M, Riskidinova Z.X

17. Функциональные ингредиенты в производстве кондитерских изделий. Куракина А.Н., Красина И.Б., Тарасенко Н.А., Филиппова Е.В. Фгбоу Впо «Кубанский Государственный Технологический Университет», Краснодар

18. Использование порошка облепихи в производстве кондитерских изделий.

Н.Н. Типсина, В.В. Матюшев, Н.В. Присухина, Е.А. Царёва

19. Разработка технологии производства кондитерских изделий

Функционального Назначения О. Г. Позднякова, Е. А. Егушова, Е.А.Тыщенко

20. Qovunning ikkilamchi hosilidan marmelad tayyorlash va uni loyihasini. Yaratish Shaxlo Hoshimova

21.Кондитерские изделия нового поколения.

Светлана Вислоухова.